

BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

*PhD, dots. **Raxmatov Temur Sotiboldiyevich***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0005-7203-4044
temur0363@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari atroflich o'r ganilgan, amaliy ma'lumotlar asosida taxlil qilingan. olib borilgan izxlanishlar natijasida bu borada mavjud muammlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar: bank, xizmat, bank operatsiyasi, omonat, kredit, masofaviy bank xizmatlari, bank kartalari, innovatsiya, onlayn xizmat, mijoz, diversifikasiya.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

*PhD, доц. **Рахматов Темур Сотиболдиевич***
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье подробно изучены банковские услуги, оказываемые коммерческими банками в Узбекистане, проанализированы на основе практических данных. в результате проведенных изысканий были выявлены существующие проблемы и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: банк, сервис, банковская операция, сбережения, кредит, услуги удаленного банковского обслуживания, банковские карты, инновации, онлайн-сервис, клиент, диверсификация.

WAYS TO DEVELOP THE PROVISION OF BANKING SERVICES

*PhD, assoc. prof. **Rakhmatov Temur Sotiboldiyevich***
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article examines in detail the banking services provided by commercial banks in Uzbekistan, analyzed on the basis of practical data. As a result of the conducted research, existing problems were identified and proposals for their elimination were developed.

Keywords: bank, service, banking operation, savings, credit, remote banking services, bank cards, innovation, online service, customer, diversification.

Kirish.

Hozirgi kunda bank tizimida zamon talablariga mos holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va shu orqali ko'plab bank xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari jadallahashgan.

Bank xizmatlarini ko'rsatish va amalga oshirishda xaridorlar talabi omilining rivojlanish ko'lami zamonaviy bank texnologiyalari bilan belgilanadi.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan (Farmon, 2018).

Farmon bilan Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jhon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirish borasida dolzarb masalalarrning mavjudligi maqola mavzusi yuzasidan izlanishlarni muhimligini asoslab beradi, xususan,

- respublikamiz chekka hududlarida tijorat banklari tomonidan mijozlarni naqd pul bilan ta'minlashda uzilishlarning mavjudligi

- bank xodimlarining yetarlicha malakaga ega emasligi va texnik AT-mutaxassislar yetishmasligi.

- bank xizmatlariga ekologik, ijtimoiy va boshqaruvi jihatlarini (ESG) kiritish zaruratining ortganligi.

Adabiyotlar sharhi.

Bank xizmatlarini ko'rsatish va amalga oshirish tartiblarini takomillashtirish mavzusiga oid bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Bank xizmatlari bozorida mijozlarning ehtiyojlari va ularni qondirish, shuningdek bank xizmatlari kabi masalalarni tadqiq qilish, rossiyalik olimlar E.F.Jukov, O.I.Lavrushin, T.N.Nesterova, A.N.Ivanov, va fransiyalik iqtisodchi olim S. De Kusserlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan (Mamadiyarov, 2021). Piter Rouz (2007) jamoatchilikka banklar tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlar, xususan banklar to'g'risida shunday deydi: "Bank – bu moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladigan, jamiyatning pul mablag'larini professional boshqarib turadigan, shuningdek iqtisodiyotda ko'pgina funksiyalarni bajarib turadigan firmadir".

Xorijlik bir kator iktisodchilar, jumladan B.Kingning "Bank 4.0. Banking faqat banklarda emas, barcha joyda" nomli kitobida global beqaror muhit sharoitida banklar to'liq qayta tashkil etilishi, iste'molchining raqamli hayotiga kirib borishi, faoliyatni ko'p kanalli xizmatlardan bir kanalli xizmatlar tamoyili asosida tashkil etishi muqarrar jarayon ekanligiga urg'u berilgan (Mamadiyarov, 2021).

Azlarovaning (2020) fikricha, O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda bank xizmatlarini sifatini va ko'lами oshirish bo'yicha qator ishlар amalga oshirildi. Lekin, jahonda bo'layotgan o'zgarishlar, global mashhuv jarayoni, raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijaozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariyi va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bank xizmatlari deganda, tijorat banklarining tezkor va strategik faoliyati hamda samarali boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan harakatlar majmuasi tushuniladi.

Banklar korxona, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo'sh pullarini jalg qilish orqali katta hajmdagi kapitalni o'z qo'llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradilar.

Mamlakatimizda tijorat banklarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi (Qonun, 2019) va 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari asosida shakllantirilgan va tartibga solib turiladi (Qonun, 2019).

Ushbu qonunchilikka asosan bizning mamlakatimizda ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi kabi ikki pog'onali bank tizimi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ayni paytda O'zbekiston Markaziy bankidan bank faoliyatini amalga oshirish uchun 36 ta bank lisenziya olgan.



1-rasm. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining mulkchilik shakliga ko'ra soni haqida ma'lumot⁵⁹

2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 35 tani, shundan kapitalida davlat ulushi mavjud banklar – 10 tani, xususiy banklar – 19 tani hamda xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar – 6 tani tashkil etgan.(1-rasm)

Bank xizmatlari ko'lамини kengaytirish maqsadida 2023-yilda "APEX BANK", "HAYOT BANK" va "YANGI BANK" aksiyadorlik jamiyatlariga bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar berildi. Tijorat banklari filiallari – 696 taga, mini-banklar – 69 taga, bank xizmatlari ko'rsatish ofislari – 1 747 taga hamda tunu-kun "24/7" rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari – 3 723 taga yetdi⁶⁰.

So'nggi yillarda 3 ta davlat banki - "Ipoteka bank", "Aziya Alyans bank" hamda "O'zagroeksportbank" xususiylashtirildi⁶¹.

Ipoteka bankning xususiyashishi O'zbekiston bozoriga majorlar kapitalini olib kirgan bo'lsa, Tenge Bank, Ziraat Bank Uzbekistan, TBC Bank kabi banklarning ochilishi ham xorijiy banklarning O'zbekistonda o'z sho"ba banklarining faoliyat yuritishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumotlara ko'ra, O'zbekiston banklarining jami aktivlari 2024 yil boshiga qariyb 652 trln so'mni, jami ustav kapitali 68,1 trln so'mni tashkil qilgan.

Jahon banki qayd etganidek, O'zbekiston oxirgi etti yilda iqtisodiyotni liberallashtirishga erishish va makroiqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish maqsadida "o'tish davri siyosati"ni olib bormoqda.

⁵⁹ Markaziy bankning rasmiy sayti <https://cbu.uz/oz/credit-organizations/banks/head-offices/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁶⁰ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf/> 68-bet

⁶¹ <https://bankers.uz/news/1426> 2024-04-18 10:19

Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa banklar
<input type="checkbox"/> O'zmilliybank	<input type="checkbox"/> Ipoteka-bank
<input type="checkbox"/> O'zsanoatqurilishbank	<input type="checkbox"/> Kapital bank
<input type="checkbox"/> Agrobank	<input type="checkbox"/> Hamkorbank
<input type="checkbox"/> Asaka bank	<input type="checkbox"/> Ipak yo'li bank
<input type="checkbox"/> Xalq banki	<input type="checkbox"/> Orient Finance bank
<input type="checkbox"/> Biznesni rivojlantirish banki	<input type="checkbox"/> Invest Finance bank
<input type="checkbox"/> Mikrokreditbank	<input type="checkbox"/> Trastbank
<input type="checkbox"/> Turon bank	<input type="checkbox"/> Davr bank
<input type="checkbox"/> Aloqa bank	<input type="checkbox"/> Tibisi bank
<input type="checkbox"/> Poytaxt bank	<input type="checkbox"/> Asia Alliance bank
	<input type="checkbox"/> Tenge bank
	<input type="checkbox"/> Anor bank
	<input type="checkbox"/> KDB Bank O'zbekiston
	<input type="checkbox"/> Ziraat Bank Uzbekistan
	<input type="checkbox"/> Universal bank
	<input type="checkbox"/> Garant bank
	<input type="checkbox"/> Madad Invest bank
	<input type="checkbox"/> Oktobank
	<input type="checkbox"/> Hayot bank
	<input type="checkbox"/> Yangi bank
	<input type="checkbox"/> Uzum bank
	<input type="checkbox"/> AVO bank
	<input type="checkbox"/> Apeks bank
	<input type="checkbox"/> Eron Soderot bankining ShB
	<input type="checkbox"/> Smart bank

2-rasm. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar haqida ma'lumot⁶²

Ushbu siyosat doirasida mamlakat hukumati 2025 yilga qadar ikkita bankni (O'zSQB, Asakabank) xususiyashtirishni rejalashtirgan. Banklar esa rentabellikni oshirish, investision jozibadorlikni va korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilash maqsadida xalqaro moliya tashkilotlarining yordamida o'z biznes modellarini sezilarli darajada o'zgartirishlari kerak. Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasiga ko'ra, 2030 yilda davlat tasarrufida 3 yoki 4 ta bank qolishi ko'zda tutilgan.

1-jadval

O'zbekistonning eng ishonchli top 10 ta banking ko'rsatkichlari reytingi (2024 yilning 1 yanvar holati bo'yicha) (Omonturdiev, 2024)

Nº	Tijorat bank nomi	jam'i aktivlari (mlrd. so'm)	ustav kapitali (mlrd. so'm)	Depozit (mlrd. so'm)	umumiy ball
1	"O'zmilliybank" aksiyadorlik jamiyati	127 503	15 476	32490	36
2	"Asakabank" aksiyadorlik jamiyati	58 014	5858	15485	29
3	"Ipoteka bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki	47 638	3834	17773	29
4	"Agrobank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki	66 700	10 770	15 389	26
5	"O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat banki	74634	4629	13799	26
6	"O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat banki	36603	7748	17 044	21
7	Biznesni rivojlantirish banki	27 063	1857	9 419	19
8	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki	19 062	3796	6361	19
9	"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki	41 866	407	30 102	18
10	"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki	9 405	1000	6743	15

⁶² Markaziy bankning rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualif tomonidan tuzilgan.

<https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1674458/>

Keltirilgan 1-jadvalda O'zbekistonning eng ishonchli top 10 ta bankining 2024 yilning 1 yanvar holati bo'yicha ko'rsatkichlari reytingi berilgan.

Banklar xalqaro reyting agentliklarining "katta uchligi" (Fitch, S&P, Moody's) tomonidan berilgan eng yuqori baholar bo'yicha saralangan – balandroq bahoga ega bo'lganlar ko'proq ball olishgan.

Har bir reyting agentligidan olingan baholar maksimal 5 ballik tizimda hisoblandi (reyting baholari haqidagi ma'lumotlar banklarning rasmiy veb-saytlaridan olingan).

Shuningdek, banklarning jami aktivlari (10 ballik tizimda), ustav kapitali (6 ballik tizimda) va depozit qo'yilmalari (5 ballik tizimda) ham ball berishda hisobga olindi. Ballar teng bo'lib qolgan taqdirda yuqorida tilga olingan ko'rsatkichlari yaxshiroq bo'lgan bank yuqoriroq o'rinni egallagan.

Tijorat banklari biznes modellarini takomillashtirilib borilishi, banklar tomonidan zamonaviy bank xizmatlari takliflarini ortishi hamda kredit ajratish jarayonlarining soddalashtirilishi natijasida bozor tamoyillari asosida kreditlash amaliyotlari ko'lami kengayib bormoqda.

Tijorat banklarining jami majburiyatları 2023 yil 1 yanvar holatiga 477 trln so'mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga ko'paydi. Mazkur holat 2022 yilda banklarning resurs bazasini oshirish hamda iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan talabini qondirish bo'yicha ko'rilgan choralar bilan izohlanadi.

2-jadval

Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida 2024-yil 1-aprel holatiga ma'lumot (Davlat ulushi mavjud banklar kesimida)

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	478 201	153 330	324 871	243 128	88 531	154 597
	Davlat ulushi mavjud banklar	335 366	78 235	257 131	122 163	38 013	84 151
1	O'zmilliyybank	99 756	15 106	84 649	33 216	9 745	23 472
2	O'zsanoatqurilishbank	58 338	8 061	50 277	14 846	4 116	10 730
3	Agrobank	55 658	9 227	46 431	14 974	7 417	7 557
4	Asaka bank	38 379	7 932	30 447	12 406	4 698	7 708
5	Xalq banki	25 473	16 359	9 114	17 518	3 436	14 082
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 191	10 487	10 703	8 591	1 658	6 933
7	Mikrokreditbank	14 181	5 237	8 944	6 077	1 746	4 331
8	Turon bank	12 143	2 585	9 558	4 651	1 607	3 044
9	Aloqa bank	10 145	3 201	6 944	9 830	3 581	6 249
10	Poytaxt bank	103	40	63	54	10	44

Majburiyatlar o'shining 59 foizi depozitlar, 23 foizi banklararo kredit va depozitlar, 12 foizi jalb qilingan kredit mablag'lari hamda 6 foizi boshqa majburiyatlar hisobiga shakllangan.

2023 yil 1 yanvar holatiga jami majburiyatlar tarkibida depozitlar – 45 foizni, jalb qilingan kredit liniyalari – 39 foizni, boshqa banklardan olingan mablag'lar – 9 foizni, qimmatli qog'ozlar, subordinar qarzlar va boshqa majburiyatlar – 7 foizni tashkil etgan⁶³

⁶³ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/961/c7zfjexu3h0f302za00orzs0sjt3lghg/Yillik-hisobot-2023.pdf>

3-jadval

**Tijorat banklarining kredit va depozitlar to`g`risida 2024-yil 1-aprel holatiga ma'lumot
(boshqa banklar kesimida)⁶⁴**

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
	Jami	478 201	153 330	324 871	243 128	88 531	154 597
	Boshqa banklar	142 834	75 095	67 739	120 965	50 518	70 447
11	Ipoteka-bank	36 960	22 428	14 532	17 312	3 733	13 579
12	Kapital bank	27 231	19 010	8 222	31 802	17 305	14 498
13	Hamkorbank	16 749	7 525	9 225	8 178	4 709	3 468
14	Ipak yo`li bank	12 339	2 735	9 604	7 865	2 654	5 211
15	Orient Finance bank	8 835	3 337	5 498	8 065	2 894	5 172
16	Invest Finance bank	6 497	2 966	3 531	7 191	3 810	3 381
17	Trastbank	5 444	2 585	2 859	7 074	1 618	5 456
18	Davr bank	5 203	3 708	1 496	2 798	1 110	1 688
19	Tibisi bank	4 430	4 266	165	3 122	2 991	131
20	Asia Alliance bank	3 977	1 459	2 518	5 800	1 610	4 191
21	Tenge bank	3 891	1 644	2 247	2 147	1 436	711
22	Anor bank	3 652	2 827	825	4 718	3 180	1 538
23	KDB Bank O`zbekiston	2 700	13	2 687	7 366	497	6 869
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 932	112	1 820	2 154	1 039	1 114
25	Universal bank	1 301	226	1 075	1 688	748	939
26	Garant bank	929	177	752	1 106	834	272
27	Madad Invest bank	285	15	269	43	24	19
28	Oktobank	144	17	127	1 913	303	1 611
29	Hayot bank	141	0,0	141	309	12	297
30	Yangi bank	50	0,5	50	20	2	18
31	Uzum bank	50	0,0	50	10	0,0	9
32	AVO bank	42	30	12	14	0,5	14
33	Apeks bank	33	4	29	225	1,2	224
34	Eron Soderot bankining ShB	18	13	5	39	1,3	38
35	Smart bank	0,1	0,1	0,0	5	5	0,1

2023 yilda aholi omonatlari qoldig`i 1,7 barobarga oshib, 63,1 trln so`mga etdi, jumladan, milliy valyutada jalb etilgan omonatlar qoldig`i 39,5 trln so`mga, jami aholi omonatlaridagi ulushi esa 62,5 foizga teng bo`lgan.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko`laming oshib borayotganligi, o`z navbatida, bank kartalariga bo`lgan talabning ortib borishiga xizmat qilmoqda.


Xususan, 2023-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 46,2 mln donaga yetib, 2022-yilga nisbatan 35 foizga o`sgan.

Aholiga respublika va xorijiy to`lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi kobeyjing bank kartalari soni 2022-yilga nisbatan 1,7 barobarga oshib, 3,1 mln donaga yetgan.

2023-yilda 429 mingta to`lov terminallari orqali qabul qilingan to`lovlar hajmi 2022-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 254,7 trln so`mni tashkil etgan.

⁶⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1674457/>

2023 yilda masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni qariyb 1,5 barobarga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 44,1 mlnga yetgan. Bunda, ushbu foydalanuvchilarning 1,3 mln tasi tadbirkorlik subyektlari, 42,8 mln tasi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.



3-rasm. Bank kartalari soni haqida ma'lumot (mln dona)⁶⁵

Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi hisobot yilda 250,1 trln so'mni tashkil etgan.

Mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan onlayn depozit operatsiyalari hajmi – 46,5 trln so'm, onlayn konversiya amaliyotlari – 27,4 trln so'm, onlayn mikroqarzlar – 13,3 trln so'm va kreditlarni so'ndirish hajmi – 15,3 trln so'mni tashkil etgan.

Shu bilan birga, respublikamizda kontaktsiz to'lov texnologiyasini kengaytirish doirasida "HUMO PAY" dasturi orqali bank kartasidan bevosita foydalanmasdan savdo hamda pullik xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshirish xizmati 23 ta tijorat banking mobil ilovalari orqali ko'rsatib kelinmoqda.

Kontaktsiz to'lov xizmatlarini rivojlantirish doirasida joriy etilgan Tap-tophone tizimi (to'lov terminali kabi to'lov qabul qilish imkonini beradi) xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga 3,1 mingdan organ.

2023-yilda NFC texnologiyasi assosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshgan holda 37,7 trln so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvar holatiga Face ID texnologiyasidan foydalanadigan tijorat banklari soni 27 taga, to'lov tashkilotlari soni esa 15 taga yetib, banklar va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar soni 2023-yil 1-yanvarga nisbatan 4,2 mln taga ortgan holda, hisobot yili yakuniga kelib 6,8 mln taga yetgan.

Mazkur o'suvchi tendensiya mijozlarga, nafaqat to'lovlarini onlayn rejimida bankka bormasdan turib amalga oshirish, balki bank hisobvaraqlarini ham masofadan identifikasiya qilish tizimi (Face ID) orqali ochish imkoniyatlarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda, mijozlar bank xodimlarini jalb qilmasdan, o'z xohishlariga ko'ra, har qanday vaqtida bank muassasalari xizmatlaridan foydalana oladi. Raqamli bank bilan barcha yozuvlar raqamli shaklda saqlanadi, ma'lumotlar analitik usullarni qo'llash orqali foydali ma'lumotlarga talqin qilinadi, mijozlar bilan yaxshi aloqa o'rnatiladi va mijozlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish natijasida ko'proq biznes paydo bo'ladi. Bularning barchasi ish samaradorligini oshirish va bankning daromadini yaxshilashga olib keladi.

⁶⁵ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gceipkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf> 125-bet

O'zbekistonda naqd pulsiz iqtisodiyot haqidagi tasavvurni butun mamlakat bo'ylab kengroq yoyish, aholi raqamli savodxonligini oshirish hamda masofaviy Internetga ularish orqali tezlashdi.

Tijorat bankining raqobatbardoshligini, shuningdek, uning izchil va samarali rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy sifat belgilaridan biri bu bank o'z mijozlariga taklif qilayotgan real va potentsial mahsulot va xizmatlar majmuidir.

Bank xizmatlari va faoliyatning turli yo'nalishlari o'rtasidagi aloqa imkoniyatlarini oshirish orqali yangi bank xizmatlarini yaratish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oqilona boshqarishni talab etadi. Shu bilan birga, bank xizmatlari sohasini diversifikatsiya qilish tendentsiyasi kuchaytiradi.

O'zbekistonda bank xizmatlarininini takomillashtirish bo'yicha yangi xizmat turlarini joriy qilish maqsadga quyidagi takliflarni inobatga olish muvofiq bo'ladi:

Bank plastik kartochkalari foydalanuvchilarining mablag'lari but saqlanishini va to'lov xavfsizligini ta'minlash zarur. Bunda tijorat banklari mijozlarning mablag'lari but saqlanishini ta'minlash uchun ularga ma'qul bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xizmatlarni taklif qilishlari kerak.

Jismoniy shaxslar ularga ochilgan bank hisobvaraqlarini mobil ilovalar yoki veb-saytlar orqali to'g'ridan-to'g'ri boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Hozirgi kunda tijorat banklarida ushbu xizmat qisman amalga oshirilayotganligini ko'rish mumkin. Bunda ayrim turdag'i to'lovlarini amalga oshirishga ruxsat berilgan. Ularning turini kengaytirish va xizmat xaqi miqdorini pasaytirish orqali mijozlarning soni oshishiga erishsa bo'ladi.

Yangi xizmatlar bozorini mavjud xizmatlarga va bank personaliga mos kelishi tahlil etish.

Xizmatchilarning malakasi va moslashuvchanligini inobatga olgan bankning qaysi bo'limi yoki bo'linmasi yangi xizmatni sotish bilan shug'ullanishi haqida qaror qabul qilish.

Bank mijozlarga kerakli xizmat turini taklif qilayotganligi haqida ularga yetkazish imkonini beruvchi marketing rejasini ishlab chiqish.

Yangi servis dasturini amalga oshirish uchun bank boshqaruvi va personalini jalb qilish va kapital qo'yishga arzirligi haqida qaror qabul qilish.

Joylarda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini oshiruvchi banklar supermarketini (univermagini) tashkil etish va ular faoliyatini qonuniy himoyalash zarur. O'zbekistonda yuqori texnologiyalarga mos bo'lgan bank xizmatlari infratuzilmasi yaratishga harakat qilinmoqda. Biroq hozirgi bosqichda tijorat banklariga mijozlar bazasini va chakana xizmatlar taklif etishni kengaytirish imkonini beradigan yangi noan'anaviy yondashuvlar talab qilinadi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Azlarova. A. (2020). Covid-19 koronovirus pandemiyasi sharoitiда o'zbekitonda bank soxasini transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalı. № 5, sentyabr oktyabr

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-yanvardagi "2020-2025-yillarga mo'jallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.

Mamadiyarov Z.T. (2021). banklarni transformatsiya qilish шароитида масофавий bank xizmatlari билан bog'liq risklarni boshqarish // Экономика и финансы (Узбекистан). №5 (141)

Omonturdiev Akbarali (2024) O'zbekistonning eng ishonchli banklari.
<https://bankers.uz/news/1426>

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi yangi taxriri "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun.

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi yangi taxriri "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun.

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida Qonuni 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son

Raxmatov Temur Sotiboldiyevich. (2023) Moliyaviy globalizatsiya sharoitida o'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent.

Азларова, А., & Рахматуллаева, М. (2022). Трансформация банковского сектора – неотъемлемая часть процесса становления цифровой экономики в республике Узбекистан. Наука и научный потенциал: основа устойчивого инновационного развития общества, 1(1), 34–37. <https://doi.org/10.47689/inlibrary-SSPBSIDS-2022-pp34-37>

Питер С. Роуз, (2007) "Банковский менеджмент", –М.